

SHe'rlar

Davo topmadim

Marg'ilon 2010 yil

SHe'rlar

Har kuni

Har kuni ko'raman men seni,
Har kuni yonaman har kuni.
O'zimni aldayman men o'zim,
Oh, sendan tonaman har kuni.

Qalamni tutqazding qo'limga,
Kechalar shoirman har kuni.
YOningga borolmay bir marta,
O'zimni koyirman har kuni.

Men sizni sog'indim baribir

Garchi siz o'zganing yorisiz,
Men uchun armonsiz bir umr.
Garchi siz qaytmaysiz hech qachon,
Men sizni sogindim baribir.

Garchi bu ko'chalar sizensizdir,
Baribir izlayman - izsizdir.
Ko'zlarim nursizdir, xissizdir,
Men sizni sog'indim baribir.

Gullarga burkandi bog'larim,
Esladim baxtiyor chog'larim.
SHunda ham bitmadi ohlarim,
Men sizëni sog'indim baribir.

Gunohkor

Seni sevish gunoxmi chindan,
naxot seni o'ylash ham gunox?
Ko'zlaringga termulib boqish
Va bu xaqda so'ylash ham gunox.

YOningdan ataylab o'tishchi,
Gunoxmi senga qo'l uzatish?
Yo'lingda intizor kutishchi
Ortingdan jimgina kuzatish.

Gard yuqtirmay ismingga,
Gunoxmi xol qo'ysa rasmingga.
Tunu-kun o'rtanib xijronda
Zor bo'lsa bir sening vaslingga.

Hammadan qizg'onsa u seni,
Gunoxmi ismingni yashirsa.
Oshiqlar safiga qo'shilib,
Ularning sonini oshirsa.

Agar bular bo'lmasa gunox,
Unda buncha jafokorsan sen?
Agar bular gunox sanalsa,
Dunyoda eng gunoxkorman men.

Go'zallar ko'p dunyoda

Go'zallar ko'p dunyoda
Go'zallikni mazmun demang.
Go'zallarga uylangan
Yigitlarni mamnun demang.
Go'zallkni aqldan
Ustun demang, ustun demang.
Xusnin ko'rib sevganlarni
Axmoq dengu majnun demang.

“Ikki” baxo

Ikkilanib ikki kunda
Ikki karra ikki to'rt dedim.
Ojizligim bildim shunda,
Bilmim juda mo'rt dedim.

Garchand xandon ko'rinsamda men,
O'zgaralar ustidan kulmasman.
CHunki, obdon urinsamda men,
Ikki karra uchni bilmasman.

Soniya

Soat milining bir burilishi-
Umrning qandaydir ulushi.
Kimningdir eng baxtli oni bu
Kimni tug'ilishi, kimni o'lishi...

Kimdir shu laxzada dunyoga xokim,
Har kuni o'tadi kayfu safoda.
Meningchi shu chog'da ruxim bezovta
Kelib qolmasmikan ajal mobodo?

Munosiblar

Men seni yulduzim deya olmayman,
CHunki, yulduz faqat kechalar go'zal.
Men seni gulga qiyoslayolmayman,
CHunki, sen guldan qanchalar guzal.

Men seni o'xshatmam ko'kdagi oyga,
CHunki, ko'kda oyning yuzlari dog'dur.
O'zimni majnunga o'xshatolmayman,
CHunki, majnun mendan anchayin
sog'dur.

Ammo, ikkimizni o'xshatsa bo'lar,
Bir-birini qattiq suygandek deb,
Ha, ikkimizni qiyoslash mumkin
Uzukka ko'z qo'ygandek deb.

Ayriliqning birinchi kuni

O'tsin umrim mayli bexuda,
Sen bo'lmasang undan ne foyda?
SHamollarga sovuray uni,
Bugun dardimning tug'ilgan kuni.

Bugun seni yo'qotdim gulim,
Meni kuydirishsin, sochilsin kulim.
Yo'q sochilmasin, ko'milsin darrov,
YAna zaxarlanib o'lmasin birov.

Tish og'rig'i

Asabing buzilar, og'riydi tishing,
Ko'zlaring chaqnaydi, to'xtaydi ishing.
Hamma senga dushmanday, tugilar mushting,
Eh sen balo boshginamga qaydanam tushding.

Zirqiraydi barcha a'zolar,
Go'yo titrareru fazolar.
Bormi bundan ortiq jazolar
Eh sen balo boshginamga qaydanam tushing.

Har qanday gap kelar malol,
Bunga chidash amrimaxol.
Faqat qiynar bitta savol,
Oh sen balo boshginamga qaydanam tushding.

Tashlab ketdi

Qayrilmay bizga,
Nozlanib o'tdi.
Nozanin qizga
Endi dil ketdi.

Qoshlari qaro,
Bag'rimdir yaro.
Bu olam aro,
SHunga dil ketdi.

Qo'lidan tutsam,
Labidan o'psamu-
Dunyodan o'tsam,
Armonim ketdi.

Ketardi g'ussam,
Bag'rimga bossam.
Eh sabr kosam,
To'ldiyu-ketdi.

Ketdi yiroqqa,
Tashlab firoqqa.
Tushdim titroqqa,
Kunim bitdi.

Kelmasangiz mayli izlab

Kelmasangiz mayli izlab,
Hech qaramang biz tomonga.
Qaro yerda qolib ketay.
Oy bo'ling siz shu osmonga.

Hech yetmasin sizga qo'lim,
Hech uzolmay ko'nglimni ham.
Alam quchsin meni doim,
Armon bo'lsin menga xamdam.

Mayli menga bo'lsin og'ir,
Mayli yelkam yukka to'lsin.
Faqat sizga baxt tilayman.
Sizga doim tole kulsin.

Bilmassan

YOningdaman doimo,
Menga parvo qilmassan.
Senga mexrim bo'lakcha,
Nega ey yor bilmassan?

Izlaganim o'zingku,
Sizlaganim o'zingku.
Ko'zlaganim o'zingku,
Nega dildor bilmassan.

YUrsang yurgan yo'lingman,
YOnsang kuygan kulingman,
Senga sodiq qulingman,
Sen xukmdor bilmassan.

Sen deb o'tguvchilar ma'lum.
Dasta gul tutguvchilar ma'lum.
Seni kutguvchilar ma'lum,
Men intizor bilmassan.

Gul tergandim senga bir-bor,
Maqtab ketding gulni takror.
Asli menga bu gullar bekor.
O'zing gulzor bilmassan.

Seni kimdir olmoqda emish,
Oshiqlar lol qolmoqda emish.
Menga omad kulmoqda emish,
O'zim xaridor bilmassan.

Seni olib ketaymi

Buncha go'zal ekansan,
Gul yuzingdan o'paymi?
O'zim bilmas yerlarga
Seni olib ketaymi.

CHexrang o'xshaydi oyga,
Juda boysan chiroyga.
Hech kim topolmas joyga,
Seni olib ketaymi.

Birga olaylik nafas,
Ko'rganlar qilsin xavas.
Dunyo bo'lmasdan qafas,
Seni olib ketaymi.

Dushmanni vayron qilib,
Hammani hayron qilib,
O'zimga janon qilib,
Seni olib ketaymi.

Bizga nima

Senga rostmi-
Menga ham rost.
Kimga yolg'on
Bizga nima.

Sevgimiz haq,
Taqdir nohaq.
Ko'tar qadax
Bizga nima.

Dunyo guzal
Azal-azal.
Hamma kasal,
Bizga nima.

So'zda xokimman,
So'zga xokimman.
Siz kim, men kimman,
Sizga nima?

O'zga bilan ko'rganman

Badanimni muzlagani bor,
YUragim ham muzlagan meni.
Sevib, kuyib yurgan chog'imda,
O'zga bilan ko'rganman seni.

Dunyo qorong'u bo'liblar ketdi.
YUragim g'ussaga to'liblar ketdi.
Asragan gullarim so'liblar ketdi,
O'zga bilan ko'rganman seni.

Gumonlarim yolg'on bo'lsaydi,
O'sha kungi akang bo'lsaydi.
Olam yana nurga to'lsaydi,
O'zga bilan ko'rganman seni.

Hamon jilmayasan o'tsang yonimdan.
Seni sevar edim kechib jonimdan.
Lekin xech chiqmaydi mening yodimdan,
O'zga bilan ko'rganman seni.

Endi bildim

Men o'zimni katta olib,
YOningga hech bormabman.
Go'yo seni sevishimni
Hech bo'ynimga olmabman.

Sensiz kunim o'tar dedim,
Men yoningda qolmabman.
Sensiz dunyo zindon ekan.
Afsus, buni bilmabman.

Kutib yashayman

Balki uchrasharman yana sen bilan,
O'zimni umidvor etib yashayman.
Qaerda va qachon bilmasdan,
O'sha uchrashuvni kutib yashayman.

Seni unutsam meni bosar g'am,
G'am chekinadi seni o'ylasam.
Seni ko'rganimda ko'zga kelsin nam,
O'sha uchrashuvni kutib yashayman.

Balki sochlarimiz oq bo'lar u dam,
Balki sening ko'ngling chog' bo'lar u dam.
Mening yuragimda dog' bo'lar u dam,
O'sha uchrashuvni kutib yashayman.

Xukm

Sevgi sudida
Bizning ish yopildi.
Seni farishta,
Meni aybdor deb topildi.
Seni siylashib
Erga berishdi.
Meni otishdi,
Erga qo'yishdi.

Bechora oshiq

Boshim uzra so'zlar aylanar,
Aylanishar sira chetlamas.
Ammo, bu so'zlarni senga aytishga,
Bechora yuragim betlamas.

Sen mening yonimda turibsan.
Men bu damni kutganman oylab.
Ammo, aytolmayman o'sha so'zlarni,
Bundanda qulayroq vaqtni poylab.

Vaqt ketsa ortga qaytmaydi,
Menchi shoshilmasdan yurgum oxista.
U go'zal so'zlarni aytmoqchi bo'lsam,
YUragim betlamas, yuragim xasta.

YUragim oshiqdir pok tilak bilan,
Uni bo'g'izlamang so'ymang pichoqlab.
Men yashayveraman shu yurak bilan,
Aytilmay qolgan so'zni quchoqlab.

Qarab tur

Oyni yer tortadi-
Tegmaydi.
Erni quyosh tortar
Tegmaydi.
Lekin biz
Topishib ketamiz.
Seni tortaman-
YOpihib ketamiz...

Qovunchi odam

Qovunlari bor-

O'g'it, suv, quyosh tasirida

Pishirilgan qovunlar.

Qovunlari bor-

Beixtiyor yoki tasodifan

Tushirilgan qovunlar.

Hozir dexqonchilik qilmay qo'ygan u

Lekin, haliyam qovunlari bor.

Talabalik

O'zini o'zi eplasa bo'ldi,
Dunyoda yo'q bunaqa davr.
Stipendiya qoplasa bo'ldi,
Talabalik shunaqa davr.

Orqa oldinga qaralmaydi xech,
Gaplar qog'ozga o'ralmaydi xech...
Bunaqa xolat yaralmaydi xech,
Talabalik shunaqa davr.

Hammasidan tongi go'zal,
Qo'ng'irog'i bongi go'zal,
Ko'nglim olar yangi go'zal,
Talabalik shunaqa davr.

Ikki olsang ham ikkilanmaysan,
Baribir kitobni titkilamaysan.
Domladan sira o'pkalanmaysan,
Talabalik shunaqa davr.

Darsda savollarga javoblar qani?
Gunoxlar serob, savoblar qani?
Ichilmay qolgan sharoblar qani?
Talabalik shunaqa davr.

Sevgi degani kitobdir bunda,
Uni o'qish juda shitobdir bunda.
Sevishganlar betobdir bunda,
Talabalik shunaqa davr.

Vadalar betakror berilar,
Tankalar bir qator terilar.
Student shu bilan kerilar,
Talabalik shunaqa davr.

Ish yo'q she'r tqishdan boshqa,
Bekorchilikni no'qishdan boshqa.
Hammasi joyida o'qishdan boshqa,
Talabalik shunaqa davr.

Uchib ketar misoli qushdek,
Og'ir botar shunda u nishdek.
Uyg'onasan uyqudan tushdek,
Talabalik shunaqa davr.

Qaylardasan

Seni o'ylab aqldan ozdim,
Seni izlab yo'ldan adashdim.
Seni ko'zlab poyu-piyoda-
Saxro kezdin tog'lardan oshdim.
Ko'zim yumsam ko'z oldimda sen
Quyosh misol o'zing porlaysan.
O'ngimda sen uyqumda ham sen
Tushlarimda qayga chorlaysan?
Osmonimning yorug' yulduzi
Qaylardasan bormisan o'zi?

Borliging xaqdagi xaqiqatlar rost,
Yo'qliginggi esa ko'nolmayman xech,
Senga atalgan bulbulman o'zim,
O'zga gullarga qo'nolmayman hech.

Meni nima ishim bor

Non tutadi choy bilan
Jondan sevar kishim bor...
Osmondagi oy bilan
Meni nima ishim bor.

Bu tun

Bu tun go'zal bo'lar, albatta go'zal,
Bu tun hammasidan o'zgacha bo'lar.
Bu tun chiroyingga bitaman g'azal,
Bu tun sendan to sizgacha bo'lar.

Bu tun kulishingga bo'laman sherik,
Bu tun yig'lashingga bo'laman guvox.
Bu tun go'zalliging mengadir ko'rik,
Bu tun eng yomoni qilaman gunox.

Bu tun aytilmagan gaplar qolmaydi,
Bu tun suxbatimiz bo'ladi uzoq.
Bu tunni shunchaki tun deb bo'lmaydi,
Bu tun ikkimizga qo'yilgan tuzoq.

Qaytmading

Sevgimizni qoldirib dog'da,
Ketishingni nega aytmading?
Bugun yolg'iz kezarman bog'da,
Baxor qaytdi senchi qaytmading.

G'uncha labdi yana u gullar,
Erta indin ochilib kular.
Endi kimga ham kerak ular
Baxor qaytdi senchi qaytmading.

Bir oz kutsin dedingmi meni?
YO unutsin dedingmi meni?
Baxornimas kutgandim seni
Baxor qaytdi senchi qaytmading.

Endi qanday yashayman

Men yo'l berardim sizga
yurayotgan bo'lsangiz.
Xalal bermasdim xayol
surayotgan bo'lsangiz.
Tanlab berardim gullar
terayotgan bo'lsangiz.
Uyg'otarmidim tushlar
ko'rayotgan bo'lsangiz.
Ayting qanday chidayman,
Endi qanday yashayman.
Ko'ksimga pichoq bilan
urayotgan bo'lsangiz.
O'zga bilan siz turmush
qurayotgan bo'lsangiz.

O'zgarish

Kechalar uzun bo'ldi-
Kechalar o'zgardi.
Seni ko'rdim nogaxon
Rejalar o'zgardi.

Xayotimga kirib kelding
Xayolimni egarlab.
Senga qaramga aylandim
Es xushimni olding egallab.

Sen xaqingda o'ylardim.
Onamga xaqingda so'ylardim.
Senchi yuz burding mendan
Men bo'lsa nomingni kuylardim
Rejalar o'zgardi.

YAngi yo'lni izladim, ammo...

YAngi yo'lni izladim, ammo,
Izlarim iz ustiga tushdi.
Gap gapirsam yana muammo-
So'zlarim so'z ustiga tushdi.

Ko'p qoqildim, yiqilganimda
Peshonam tuz ustiga tushdi.
Alamlardan bo'g'ilganimda
O'nim ham yuz ustiga tushdi.

SHunchalik oddiydir so'zlaring

SHunchalik oddiydir so'zlaring
CHumoli eshitsu kuladi.
SHunchalik jiddiydir ko'zlaring
Termulding tog'lar ham quladi.

SHunchalik qilmishing qiziqki
Mingtasi ortingdan kuzatar.
Sen yurgan yo'l shundek chiziqki
Mendan juda olislab ketar.

SHunchalik noziksan, soddasan
YOningda yo'talib bo'lmaydi.
Dunyoda eng og'ir moddadan
Xech qachon ko'tarib bo'lmaydi.

Biz yurgan yo'llardan yurganda

Biz yurgan yo'llardan yurganda-
Ming afsus qilaman azizam.
Gullari uzilgan bog'lardan
YUrgandek bo'laman azizam.

Biz yurgan yo'llardan yurganda-
Alamdan yig'layman o'ksinib.
Gullari uzilgan bog'larning
Tikani tiladi ko'ksimni.

Kimdir

Kimdir kelar izimdan bu kun.
Kimdir chiqar yo'limdan kesib.
Kimdir menga tikilar be un,
Kimdir yig'lar yurakni ezib.

Kimdir menga toshlar otadi,
Kimdir esa kuzatar zimdan.
Kimning so'zi og'ir botadi,
Kimdir g'iybat qilar ortimdan.

Kimdir menga keltiradi g'am
Va aylaydi xolimni xarob.
Kimdir meni sevadi chindan,
Uzatadi bir qultim sharob.

Tog' sayri

YUr, ey do'stim ikkimiz sayr qilaylik.
YAxshisi chiqaylik xuv baland toqqa.
Avvalgi cho'qqilar men uchun tanish,
Bugun chiqamiz undan balandroqqa.

To'g'ri toqqa chiqish ancha mashaqqat,
Lekin, cho'qqidagi roxat ayt qayda?
O'zing o'zing bilan tengdiansan faqat,
Pastdagi hammasi –hammasi mayda.

Mana toza xavo, musaffo osmon,
To'ldirib-to'ldirib quyaver maydan.
Buyuk tashvishlaru-ulkan g'amlarning,
CHo'qqidan qarasang hammasi mayda.

Uchrashuvda

Qo'y endi qilmagin noz –firoq,
Bunchalik kuydirma ko'zlarni.
Uylaring bu yerdan ko'p yiroq-
Hech kimsa tanimas bizlarni.

Qo'lingni qo'limga ber endi,
Eritgin qalbdagi muzlarni.
Istagan tomonga yur endi,
Hech kimsa tanimas bizlarni.

Gapirma, lablaring ochma sen,
Nigoxing aytadi so'zlarni.
Qo'llarning qo'limda qochma sen,
Hech kimsa tanimas bizlarni.

Allakimga

Men sendan qarz so'raganim yo'q,
YOki o'rganim yo'q arpangni xomdan.
Ko'zlaringni nega qilayapsan lo'q,
Xuddi tarasha tushgandek tomdan.

Bir kun qarz so'rasang berishim tayin,
Arpangni pishganda o'rib beraman.
Xijolat tortib yurmagin keyin,
Og'ir kunda yonma-yon turib beraman.

Holatlar

Qafasidan ozod qushdek
Parvoz etib ketdi falakga
Nigoxim.

Unitilmas qora tushdek
Og'riq berar xamon yurakga
Gunoxim.

YOlg'iz yurma

Seni ko'rsam panada tanxo
Men yoningga uchib boraman.
Mingta go'zal menga zor bo'lsa
Hammasidan kechib boraman.
Daraxt bo'lsam ildizim yerda
SHu ildiz-la ko'chib boraman.
Asir bo'lsam kishanlar qo'lda
Kishanlarni yechib boraman.
Borolmasam yonaman esiz-
So'ng jimgina o'chib boraman.
YOlg'iz o'zing yurmagin deya
Men doimo cho'chib yuraman.

Ko'ylagingiz chiroyli ekan

Ko'ylagingiz chiroyli ekan-
Bir aylaning qilay tomosho.
SHu chiroyli ko'ylagingizda
Ko'rgim kelar sizni hamisha.

Rosti, ko'ylak ko'rish emasdir
Maqsadim bu yerga kkelishdan.
Qulog'ingizga mayli aytayin
Qomatingiz juda kelishgan.

Tavakkalchi odam

Tavakkal tashladim tanga-
Bashorat aylama manga.
CHikkami-pukkami baribir
Jonimni tikganman janga.

Tavakkal tashladim tanga-
Bashorat aylama manga.
CHikkami-pukkami baribir
Ziyoni tegmaydi sanga.

To'yimiz bo'lyapti

Ko'zingdan nur tomar ko'zinga,
Qalbing bu qalbimga bog'lanar.
Qo'llarim tekkanda qo'lingga-
Ko'ngling-da ko'nglimdek chog'lanar.

Jilmayib turasan, kulaman,
Bir hildir o'ylagan o'yimiz.
Roziman, rozisan bilaman,
To'yimiz bo'lyapti, to'yimiz.

Qo'rquv

Goho qo'rqib ketasan kishi,
Qorong'udan qo'rqan boladek.
Go'yo seni uradi yashin-
Jon uzilar mitti toladek.

Goho qo'rqib ketasan kishi,
Ko'zlaringda dunyo torligi.
Endi baxtni topdim deganda
Qo'rqinchlidir o'lim borligi.

Adashgan odam

Bu toshlar men tomon otilmagandi,
Adashib boshimga tegdilar xolos.
Bu tashvishlar menga atalmagandi,
Ular tik qaddimni egdilar xolos.

To'g'ri, bu kengliklar meniki emas,
Faqat orzularga berildim xolos.
Biror narsa nasib qilmagan menga,
YOlg'ondan sizlarga kerildim xolos.

Labimga tabassum kelmaydi sira,
Sizning yoningizda kulganman xolos.
Asli bu umr ham meniki emas
Kimningdir o'rniga kelganman xolos.

Majnunman

Tong otaveradi har kuni takror,
Takrorlanar ba'zi aytilgan so'zlar.
Men yana sevgimga bo'laman iqror,
Izlayverar seni kechagi ko'zlar.

Men seni bugun ham topaman.
YAna kulib kutib olasan meni.
YAna ishtiyoqla senga chopaman,
SHirin qiynoqlarga solasan meni.

Termulib ko'zlaring qorachig'iga,
Bugun ham xayotdan mamnunman.
CHidolmay ayriliq achchig'iga
Ertagacha men yana majnunman.

Sen menga keraksan

Sen menga keraksan toza xavodek,
Sen menga keraksan kuy-u navodek.

Sen keraksan xuddi tanamga jondek,
Sen keraksan misoli menga makondek.

Sen borsan, ko'ngilda orzularim bor,
Sen borsan, men uchun qayg'ular bekor.

Sen borsanki shaxdim bexaddir,
Sen borsanki yashash roxatdir.

Sen borsanki imkonim cheksiz,
Sen borsanki baxtliman tengsiz.

Nima qilay

Ko'zing bilan ko'zim ko'rishar,
Sen bilan men ko'risholmaymiz.
YUzing bilan yuzim so'rashar,
Sen bilan men so'rasholmaymiz.
Qalbing bilan qalbim birgadir,
Bizlar birga yurisholmaymiz.
Nima qilay jonginam axir
Dunyo shundoq yaralgan ekan.

Seni sevaman

Oxirgi so'z, so'nggi urinish,
Aytiladi senga qarab tur.
So'nggi saxna, so'nggi ko'rinish
Ko'rsatilar senga qarab tur.

Bunda notiq o'zimman bilsang,
So'zlarimda sir-sinoat bor.
E'tibor berib qarab tursang,
Bu saxnada bir xaqiqat bor.

Bu shunchaki tasodif dema,
Tasodiflar toshib ketdiku.
Seni chindan sevib qolganman,
G'amim boshdan oshib ketdiku.

Bosgan izlaring qolar

Baxor-yozdan keyin kuzlaring qolar,
Ortingda o'g'linggu-qizlaring qolar,
So'nggi dam termulib ko'zlaring qolar,
YUraklarga yetgan so'zlaring qolar,
Qolsa faqat bosgan izlaring qolar.

Do'stu-yaqinlaringni qo'llab yur,
Ko'ngillarni yashnatib, gullab yur.
Sog'inganlarga salomlar yoo'llab yur,
YUraklarga yetgan so'zlaring qolar,
Qolsa faqat bosgan izlaring qolar.

Xizmatida bo'lgin ota-onangni,
Xurmatida turgin aziz bolangni.
CHiqarma tashingga achchiq nolangni,
YUraklarga yetgan so'zlaring qolar,
Qolsa faqat bosgan izlaring qolar.

Asl insonlar molu-dunyo talashmas,
Bir-biridan qolgan yerni yalashmas.
Nafs so'ziga kirish senga yarashmas,
YUraklarga yetgan so'zlaring qolar,
Qolsa faqat bosgan izlaring qolar.

Necha zotlar o'tdi nomlari o'chdi,
Kunduzlari o'chdi, shomlari o'chdi.
Ular miltillatgan shamlari o'chdi,
YUraklarga yetgan so'zlaring qolar,
Qolsa faqat bosgan izlaring qolar.

Tangrim omonatin olishligi haq,
Dunyo senu mendan qolishligi haq.
Amallar xisobi bo'lishligi haq,
YUraklarga yetgan so'zlaring qolar,
Qolsa faqat bosgan izlaring qolar.

Ro'parangda ojiz turaman

Ro'parangda ojiz turaman,
Ketasanmi, qolasanmi yo?
YUragimni so'ra beraman,
So'ramasdan olasanmi yo?

Ro'parangda ojiz turaman,
Endi bitta imo kifoya.
Sevgim bilan yashayman yoki,
Sevgim bilan topgum nixoya.

Mendan yaqin kishing yo'q

Men qarasam qaraysan,
Qaramasam ishing yo'q.
Bu dunyoda bilib qo'y,
Mendan yaqin kishing yo'q.

Sen bog'imda gullaysan,
Baxoring bor, qishing yo'q.
Armon nima bilmaysan,
Mendan yaqin kishing yo'q.

Agar ketsak ayrilib,
Mensiz umid qushing yo'q.
Bilib qo'ygin, bilib qo'y,
Mendan yaqin kishing yo'q.

Qirq yil o'tsa oradan,
Milkingda bir tishing yo'q.
O'shanda ham bilib qo'y,
Mendan yaqin kishing yo'q.

Sevgi tufayli

Sevgi tufayli ensam qotadi,
Sizni hech qachon ensangiz qotmas.
Bir uxlasangiz tonglar otadi,
Men uchun bugun sira tong otmas...

G'azallar

Agar boshimda ishq savdosi bo'lsa

Agar boshimda ishq savdosi bo'lsa,
YOrimga yetardim vafosi bo'lsa.

Har nega roziydim visol yo'lida,
Xattoki tunganmas jafosi bo'lsa.

Tinmayin izlardim topguncha,
Er yuzida uning sadosi bo'lsa.

Lekin, ko'nglimdagiga o'xshashi yo'qdir,
Koshkiydi dardimning davosi bo'lsa.

Oshiqlar axlining ushbu kun-
Ajabmas, Erkin eng gadosi bo'lsa.

Kelmagay ko'zimga uyqu

Kelmagay ko'zimga uyqu suratingni ko'rmasam,
Tushim ma'no kasb etmas siyratingni ko'rmasam.

SHirin-suxan so'zlaringga asir qilding ne uchun?
Telbaman bir kechada suxbatingni ko'rmasam.

CHorasizman oshiqclaring ko'pdir sening,
Ne qilardim ularga nafratingni ko'rmasam.

Bilganlar demasin meni devona yo majnunsifat,
Ortingdan yugurarmidim muruvatingni ko'rmasam.

Do'stu yorlar ko'pdir va le sen bittasan,
YOlg'izim dermidim seni oqibatingni ko'rasam.

Davo topmadim

YUzingga termuldim xato topmadim,
So'zingdek yoqimli navo topmadim.

Kuyingda kuyganlar xolini ko'rib,
Oshiqlikni o'zimga ravo topmadim.

Uzoq-uzoqlarga ketmoqchi bo'ldim,
Ammo sensizlikda xavo topmadim.

O'zingga intildam qaylarda bo'lsam,
YOningda bo'lishdek safo topmadim.

YOra ne baloga muftalo qilding,
Ishq degan dard davo topmadim.

So'zlay desam tarifingiz

So'zlay desam tarifingiz hammaga men maqtanib,
Ovoraman xusningizga bitta jumla axtarib.

Sizni mujassam etmoqqa jumla ojiz bechora
Tarifingizga xattoki mingta doston ham g'arib.

O'zgaga bir boqsangiz yo qilsangiz iltifot
Men tamom bo'lsam kerak o'lsam kerak shu on qarib.

Yillar o'tsa oradan qutuldim deb o'ylamang
YOningizda bo'laman yuzlar tirish soch oqarib.

Jononim mening

YUzing armonim mening,
Ko'zing ummonim mening.

Qayda bo'lsang shundaman,
Poying makonim mening.

Bir tabassum aylagin
Kulgiching jonim mening.

Oyni ortda qoldirgan
Qoshi kamonim mening.

Lek so'zimdani ranjima
Qaxring ziyonim mening.

Bugun sevgim yashirmoqqa
Yo'qdir imkonim mening.

Bir kun bo'larsan albat
O'zing jononim mening.

O'ylab ko'ring

Sevmasam yo'llaringiz kutarmidim o'ylab ko'ring,
Qizil gullarni sizga tutarmidim o'ylab ko'ring.

Muxabbatimga zarra gumoningiz bo'lsa agar
O'zgaga hech boqmasman bir poylab ko'ring.

Bir-birimiz uchun yaralgandaymizda axir-
Xo'p munosib ekan bo'ylarimiz bo'ylab ko'ring.

Ishqim oshib toshib turar yuragimda
Oshganini qalbingizga joylab ko'ring.

Buncha g'amginsiz-a demang xolim ko'rib
Lablaringiz boli bilan siylab ko'ring.

Tark aylama

Ey go'zal zinxor meni tark aylama,
Hijron dengiziga meni g'arq aylama.

Jilmayib qo'ygin o'zimga bir qarab,
E, voh, bunchalik past narx aylama.

Mendan olib qochib shaxlo ko'zingni
Janubu-g'arb, shimolu-sharq aylama.

O'lchanmagay

CHin insonning kimligi pul bilan o'lchanmagay,
Gulxanning xarorati kul bilan o'lchanmagay.

Salgina yomg'ir gullarni to'kganin ko'rganmisiz?
Daraxtning mevasini gul bilan o'lchanmagay.

Imkon bo'lsa ezgu ishga jonni fido qilmoq kerak,
Umr bexuda yurgan yo'l bilan o'lchanmagay.

SHunday bo'lsa

Jonon qaytib jafo qilma, agar jafo shunday bo'lsa,
Marxamating kerak Emas- menga ravo shunday bo'lsa.

Boshim olib ketay sendan olislarga- mayliga,
Agar chindan ko'nglingda muddao shunday bo'lsa.

Majnun kabi mayli kezay saxrolarni,
Muxabbat ko'chasida iddao shunday bo'lsa.

Ayting do'stlar, qayga boray, mashrab devona bo'lgan,
Ishq karvoniga sarbon- raxnamo shunday bo'lsa.

Men sevgidan kecholmadim jondan kechay,
Ishq o'tida kuyganga agar davo shunday bo'lsa.

ONA

Ona bor uyda baxtsiz dam bo'lmagay,
YUzlar kular ko'zlarda nam bo'lmagay.

Borini baxshida qilar farzandga
Hech qaerda bunday xotam bo'lmagay.

Dunyo to'yxonadir ona kulib tursa,
Zinxor yig'lamasin ortiq g'am bo'lmagay.

Onasin yig'latgan yigit yigitmas,
Ikki dunyoda ham u odam bo'lmagay.

Onajonimdan bir kun bo'lsam yiroqda,
SHu kuni albatta mazam bo'lmagay.

Adashmagan donolar ona quyosh deb,
Onasiz uy zulmatdir sham bo'lmagay.

SHunchalik buyukki maqtasang xanuz,
Uning barcha xislatlari jam bo'lmagay.

Erkin qil tazim, poyida jannat turar,
Onani ardoqlaganlar kam bo'lmagay.

Omadim kelganga o'xshaydi

Menga yuzin ko'rsatdi yor xijronlar o'lganga o'xshaydi,
Darbadar qilgach be omon yor ko'ngli to'lganga o'xshaydi.

YUzlarida tabassumu ko'zlarida nur bilan,
Menga shirin so'z demoqda bir nima bo'lganga o'xshaydi.

Muxabbat otashiga necha yil bag'rimni tutdim,
Kuygan jonu tanim uzra shabbodaelganga o'xshaydi.

Har qayon solsam nazar ko'zlarimga olam go'zal,
Oh, mening orziqib kutgan omadim kelganga o'xshaydi.

YOd et

Men kabi bechorani ham bir yod et,
Kelib kulbam sari ko'nglimni shod et.

Sensiz o'tgan kunim qursin-devonaman,
Vayrona ko'ngil uyimni obod et.

YOlg'izligim ko'rib g'animlar uyushmoqda,
Ularning shum rejasin barbod et.

Oshuftaman yuzingni ko'rgan onimdan sanga,
Takallum aylab, xijronlardan ozod et.

Kel ikkimiz sayr etaylik gulzorlarga,
O'zni SHirin aylab meni Farxod et.

Ey, Erkin, kelsa yoring izlab seni,
SHu kunni bayram bilib uni muborakbod et.

Ma'no qani

Bu dunyodan izlaganim ma'no qani?
Men bilmadim bilguvchi dono qani?

Munosib yor asl ma'no dedilar,
Jonim bersam arziydigan ra'no qani?

Do'stu yordan ko'nglam to'lmaydi bu kun,
Ko'nglimni ko'targuvchi oshno qani?

Ey Erkin oftobda qolganday bo'shashma,
SHitob et, avvalgi muddao qani?

Arzimaydi

Nomard bilan teng bo'lma kurashga arzimaydi,
Tang bo'lganda axvoling so'rashga arzimaydi.

Bevafo bo'lsa yoring oqizma ko'zdan yoshing,
Uning orsiz yuzi bir qarashga arzimaydi.

Tog'day bo'lgin qulasang yer titrasin, zeroki,
Xas bo'lmagin birodar qulashga arzimaydi.

Orzu-la odam tirik, umidsiz inson so'nik,
Hayot maqsadsiz xunuk- yashashga arzimaydi.

Ey Erkin, shuncha umr ko'rdim deya shodlanma,
Maqsadsiz o'tgan kuning sanashga arzimaydi.

YOmon bo'lsang

Ular yaxshi bo'lsalaru tillarda sen yomon bo'lsang,
Bug'doy boshqoq bo'lsalaru qurib bitgan somon bo'lsang.

Ular sayyod bo'lishsa-yu, har tomonga o'q uzishsa,
Dam badam tegib tursayu ular uchun nishon bo'lsang.

Ular o'sib, ular gullab, barq urishib ular kulsa,
Senchi sulib, suvsiz qurib, tutab-yonib tamom bo'lsang.

YUrguvchi yo'llaringda kattakon xarsang bo'lishsa,
Ortingga qaytib ketib ovorayu sarson bo'lsang.

Axli insonlar ichinda bir o'zingga tanbex bersa,
Ular dono bo'lsalaru, sen bir tentak nodon bo'lsang.

Ularning ko'zlariga Erkin hech xursand ko'rinma,
O'zlarini o'ldirarlarsa agar chindan shodon bo'lsang.

Bilmading

Muxabbating men uchun armon bo'ldi bilmading,
Muxabbatim sen uchun arzon bo'ldi bilmading.

YOlg'izlikda dilbarim, dunyolarga sig'madim,
YAxshilar ko'rib xolim xayron bo'ldi bilmading.

Estalikka qoldirgan, ko'zlarimni toldirgan,
Surating dardlarimga darmon bo'ldi bilmading.

CHiqaverding yo'lakdan, uraverding yurakdan,
Sevishsin deb falakdan farmon bo'ldi bilmading.

Lazgi

Go'zal husningizni yor o'ylaganim-o'ylagan,
Nomingizga she'r bitib kuylaganim-kuylagan.

Har so'zingiz yod olib E-vox,
O'z-o'zima telbadek so'ylaganim-so'ylagan.

Atrofingizda aylanib, atrofingizda aylanib,
Bo'ylarimizni asta bo'ylaganim-bo'ylagan.

So'zlamoqqa shaylanib aytolmadim-aytolmadim,
Siz yo'q yerda so'zamol qaynaganim-qaynagan.

Siz bor uchun dunyoda har qo'shiqqa, har kuyga,
Xirom aylab davrada o'ynaganim-o'ynagan.

O, sening borlig'ing meniki edi

O, sening borlig'ing meniki edi.
Neki baxtim bo'lsa seniki edi.

Ko'zlarim qaragan tomon sen eding,
Malika sen eding sulton men edim.

Taqdirni tasodif izdan chiqardi,
Baxtimizni qo'limizdan chiqardi.

Qaytmas kunlar kabi olislab ketding,
Meni tashlab yolg'iz ne izlab ketding.

Bir zumda dunyoni to'ldirding sirga,
Naxot bo'lolmaymiz ikkimiz birga.

Seni unutishga majburmanmi ayt,
Qaytish mumkin bo'lsa qayta qolgin qayt.

Mish-mish

YUzingda dona xolmish,
Labing qirmizi olmish.

Qosh-ko'zing tundek qaro,
Sochlaring majnuntolmish.

Dunyoda eng baxtiyor-
Soching silar shamolmish.

O'zing ajib tilsimu,
Har bir so'zing savolmish.

Sening xajringda kuyib,
Oshiqlar bemajolmish.

Oshiqlaringga vasling,
SHunchaki xom hayolmish.

Ko'zing tushgan kimsalar,
Bir umr dog'da qolmish.

Hurmisan yo parimu
Hamma xayronu lolmish.

Ona

Bu jaxonda hammadan kerakligingni bildim,
Sen haqiqiy suyanchim - tirgakligingni bildim.

Aytmasamda dardimni ko'zlarimdan sezasan,
G'amlarimga sherigim - zizrakligingni bildim.

Bag'ringda men yayrab o'sdim baxtiyorman, ming
shukur,
Men yer bo'lsam agar falakligingni bildim.

Kech kelar bo'lsam agar kutganim bir o'zingsan,
Kechalari uyqusiz sergakligingni bildim.

Sen kabi mexru muxabbat berolmas menga hech kim,
Xatto farishtalarga o'rnakligingni bildim.

Sen kulsang shodumonu, xomush bo'lsang yig'lar
yurak,
YUragimning o'rnida yurakligingni bildim.

Bu jaxonda hammadan kerakligingni bildim...

YAxshiroq

Ayni baxor chog'ida gullaganing yaxshiroq,
YOki gullar madxini kuylaganing yaxshiroq.

Munosib do'stlarni topgin, munosib yoringni top,
Noahillar davrasida bo'lmaganing yaxshiroq.

Sen so'zingda tur matonat bilan xargiz,
Gar turmasang va'dalar qilmaganing yaxshiroq.

Ustozlar o'gitlarin saqla yodingda mudom,
CHala bilgandan ko'ra bilmaganing yaxshiroq.

Jasorat ko'rsatib sen elingni ko'nglini top,
SHunday qilsang yuz yilda ham o'lmaganing
yaxshiroq.

Erkin ey dunyoga kelding yaxshilik bo'lmasa sodir,
Demakki kelganingdan kelmaganing yaxshiroq.

Ne bor

Aytar so'zim bo'lmasa og'zim ocharga ne bor,
Tinglaguvchim bo'lmasa sayrab socharga ne bor.

Ming ko'ngil qo'ygan bilan ko'nglidan joy olmasam
Jonim deb jononim deb yorni qucharga ne bor.

Ikki oyoqda gohi yurishni eplolmagach,
Hayolot dunyosida ko'kka ucharga ne bor.

Ne g'am tushsada boshga jonni asrarman hamon,
Manzil tayin bo'lmagach ayting shosharga ne bor?

Bir kecha janon bilan ishratda qolursan,
Boshingga tushgan balodan hayratda qolursan.

Tilingdan boshingga gar kelmasa g'am,
Boshqa yo'llar bilan kelolmas hech ham.

Yig'laganga xandon gapirma,
Gapirmaganga chandon gapirma.

Ta'lim ko'rmasang nodon bo'lursan,
Tarbiya ko'rmasang xayvon bo'lursan.

To'rtliklar

Ko'zlarim yo'lingda giryon bo'lg'usi,
Netayki, visoling armon bo'lg'usi.
Bugun ham yuzingni ko'rmasam agar
Jonim bir yon-u, tanim bir yon bo'lg'usi.

Sen gullar malikasi nargis chamanda.
Barcha go'zalliklar sensiz sharmanda.
Es xushim qayonga yo'qoldi desam-
Sen tomon yugurib ketdi chamamda.

Mening o'ylaganim xato bo'lgani-bo'lgan,
SHundan bao'rim kuyib ado bo'lgani-bo'lgan.
Donolar so'zini bir-bir kuzatsam,
Bilmassan degan xato bo'lgani-bo'lgan.

YAngi fanni ochmasman balki,
Lek nimadir qilib qaytaman.
Xech bo'lmasa birov aytmagan
yangi fikr topib aytaman.

SHe'rimni o'qigan bir marta
YAna bir o'qishni xoxlasa.
Baxtiyor bo'lardim albatta-
SHe'rlarim o'zini oqlasa.

*SHe'rlar muallifi:
Farg'ona viloyati Yozyovon tumani Beruniy
maxallasi fuqarosi Marg'ilon 1-tibbiyot kolleji
informatika fani o'qituvchisi Islamov Erkinjon.*

*She'rlar haqidagi fikringizni +998 92 352 33 00
raqamiga yoki
e.islamov@yandex.ru manziliga yuboring.
Fikrlaringizni kutib qolaman.*